

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Viloyatda bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **735,9** mln. AQSh dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **142,2** mln. AQSh dollariga, yoki **23,9** % ga ko‘paydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y. **735,9** +**23,9** %
(2023-y. **593,7**)



Saldo

2024-y. – **377,5**
(2023 y. – **324,3**)



Eksport

2024-y. **179,2** +**33,0** %
(2023-y. **134,7**)



Tovarlarni: **167,5**



Xizmatlar: **11,7**



Import

2024-y. **556,7** +**21,3**%
(2023-y. **459,0**)




Tovarlarni: **555,0**



Xizmatlar: **1,7**

SAMARQAND VILOYATINING YEUIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 264,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 106,0 mln. AQSh dollari, import hajmi esa 158,4 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YeOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.


**SAMARQAND VILOYATINING SHAHAR VA TUMANLAR
KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2024-yil yanvar-mart)***

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	735,9	123,9	100,0
Samarqand shahri	434,8	144,5	59,1
Kattaqo'rg'on shahri	18,4	3,2 m.	2,5
tumanlar:			
Oqdaryo	11,2	102,9	1,5
Bulung'ur	5,7	105,1	0,8
Jomboy	77,2	149,9	10,5
Ishtixon	6,7	106,1	0,9
Kattaqo'rg'on	10,9	21,9	1,5
Qo'shrabot	1,1	54,8	0,2
Narpay	9,8	136,7	1,3
Payariq	4,5	82,3	0,6
Pastdarg'om	16,1	117,6	2,2
Paxtachi	2,8	108,9	0,4
Samarqand	41,9	97,1	5,7
Nurobod	2,9	39,1	0,4
Urgut	58,5	122,1	7,9
Toyloq	31,0	106,4	4,2

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulush Samarqand shahri (59,1 % yoki 434,8 mln. AQSh dollar), eng quyi ulush esa Qo'shrabot tumani (0,2 % yoki 1,1 mln. AQSh dollar) hissasiga to'g'ri keldi.



SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan 179,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 133,0 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.

XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-mart, ulushi % da)




Samarqand viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.


**SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR
KESIMIDA EKSPORTI**
(2024-yil yanvar-mart)*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	179,2	133,0	100,0
Samarqand shahri	82,5	160,6	46,0
Kattaqo'rg'on shahri	15,0	4,7 m.	8,4
tumanlar:			
Oqdaryo	6,0	106,8	3,4
Bulung'ur	3,8	118,4	2,1
Jomboy	16,3	95,8	9,1
Ishtixon	3,3	69,8	1,8
Kattaqo'rg'on	1,9	77,2	1,1
Qo'shrabot	0,9	190,9	0,5
Narpay	4,3	81,3	2,4
Payariq	3,7	121,5	2,1
Pastdarg'om	3,8	89,7	2,1
Paxtachi	2,2	125,8	1,2
Samarqand	16,0	133,2	8,9
Nurobod	0,2	35,6	0,1
Urgut	13,1	105,0	7,3
Toyloq	3,7	136,0	2,1

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari




Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 46,0 % ulush bilan 82,5 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Nurobod tumani 0,1 % ulush bilan 0,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI

2024-yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 556,7 mln. AQSh dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 121,3 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (35,6 %), kimyoviy vositalar va shunga oʻxshash mahsulotlar (26,4 %) hamda sanoat tovarlari (20,9 %) hisobiga toʻgʻri keldi.



XSST BOʻYICHA IMPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-mart, ulushi, % da)




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga koʻra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 96,6 mln. AQSh dollariga koʻpaydi va 555,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar 1,7 mln. AQSh dollariga yetdi.


**SAMARQAND VILOYATINING TUMANLAR
KESIMIDA IMPORTI**
(2024-yil yanvar-mart)

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Samarqand viloyati	556,7	121,3	100,0
Samarqand shahri	352,3	141,1	63,3
Kattaqo'rg'on shahri	3,4	133,0	0,6
tumanlar:			
Oqdaryo	5,2	98,7	0,9
Bulung'ur	1,8	85,3	0,3
Jomboy	60,9	176,7	10,9
Ishtixon	3,4	2,2 m.	0,7
Kattaqo'rg'on	9,1	19,0	1,6
Qo'shrabot	0,2	15,8	0,05
Narpay	5,5	2,9 m.	1,0
Payariq	0,8	33,1	0,1
Pastdarg'om	12,3	130,2	2,2
Paxtachi	0,6	72,3	0,1
Samarqand	25,9	83,2	4,7
Nurobod	2,6	39,4	0,5
Urgut	45,4	128,2	8,2
Toyloq	27,3	103,3	4,9

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri 63,3 % ulush bilan 352,3 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani 0,05 % ulush bilan 0,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.